

## O‘ZBEK MILLIY BOSH KIYIMLARINI XORIJIY MUZEYLARDA NAMOYISH ETISH JARAYONLARI



Nurullayeva Zulayho Ravshan qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti tayanch doktoranti (PhD)

[zulayho9294@mail.ru](mailto:zulayho9294@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20807153>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jahonning yetakchi muzeylarida saqlanayotgan va namoyish etilayotgan o‘zbek milliy bosh kiyimlarini namoyish etilishi masalalari, ekspozitsiyada joylashtirish tartibi, dizayni va ularning ahamiyati, tarixiy-madaniy qiymati haqida yoritilgan. Shuningdek, Rossiya etnografiya muzeyi, Berlin etnografiya muzeyi, Britaniya muzeylarida doimiy ekspozitsiya va ko‘rgazmalarda bosh kiyimlarni va liboslarni namoyish etishda qo‘llanilgan innovatsion usullar va multimedia vositalari va virtual turlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** muzey, kolleksiya, do‘ppi, multimedia, gologramma, QR kod, virtual muzey, ekspozitsiya, dizayn.

**Аннотация.** В данной статье освещены вопросы экспонирования узбекских национальных головных уборов, хранящихся и выставляемых в ведущих музеях мира, порядок размещения в экспозиции, дизайн и их значение, историко-культурная ценность. Также были рассмотрены инновационные методы и мультимедийные средства и виртуальные туры, используемые при демонстрации головных уборов и одежды в постоянных экспозициях и выставках в Российском этнографическом музее, Берлинском этнографическом музее, Британском музее.

**Ключевые слова:** музей, коллекция, тюбетейка, мультимедиа, голограмма, QR код, виртуальный музей, экспозиция, дизайн.

**Abstract.** This article covers the issues of displaying Uzbek national headwear stored and displayed in the world's leading museums, the procedure for placing it in the exposition, its design and significance, and its historical and cultural value. Innovative methods and multimedia tools and virtual tours used in the demonstration of headwear and costumes in permanent expositions and exhibitions at the Russian Museum of Ethnography, the Berlin Museum of Ethnography, and the British Museum were also discussed.

**Keywords:** museum, collection, skullcap, multimedia, hologram, QR code, virtual museum, exposition, design.

Bosh kiyimi sifatida do‘ppilar tarixi ko‘p asrlarga borib taqaladi. Uning yuksak badiiy qadr-qimmat, kashtalarning bezakli tasvirlari ushbu xalq amaliy san‘ati turining uzoq rivojlanish yo‘lidano dalolat beradi. O‘zbekiston do‘ppisining dovrug‘i olamga yoyilgani yaxshi ma‘lum.

O‘zbek milliy bosh kiyimlari xalqning tarixiy-estetik qarashlari, hunarmandchilik an‘analari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim etnografik meros hisoblanadi.

Bugungi kunda yuksak va noyob san‘at durdonalari darajasiga ko‘tarilgan bu bebaho merosimiz muzeylarimizda saqlanib kelmoqda. Bir qator jahonning ilg‘or muzeylarida ham o‘zbek milliy liboslari, bosh kiyimlari, etnografiyasiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar mavjud. Rossiyadagi etnografiya muzeyi, Ermitaj muzeyi, Sharq davlat muzeyi, Buyuk Britaniyadagi Viktoriya va Albert muzeyi, Yaponiya etnografiya (Osaka shahri) muzeyi, Germaniyaning Berlin shahridagi etnografiya muzeylarini fikrimizning tasdig‘i sifatida keltirib o‘tish mumkin.

Xorijiy muzey fondlaridagi o‘zbek bosh kiyimlari kolleksiyalarining shakllanish jarayoni muzeylararo almashuv, turli ekspeditsiyalar, xalqaro hamkorlik jarayonlari hisobiga amalga oshgan. Xususan, Rossiya imperiyasi va Yevropa tadqiqotchilarining (A. Kun, V.V. Bartold, A.A. Divaev, S.M. Dudin va boshqalar) Turkiston o‘lkasidagi ekspeditsiyalari davomida o‘zbek liboslari, jumladan bosh kiyimlar to‘plangan. Ushbu namunalar hozirgi kungacha Rossiya Etnografiya muzeyi, Ermitaj, Britaniya muzeylari, AQShdagi Metropolitan muzey fondlarida saqlanadi va namoyish etiladi.

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha o‘zbek milliy bosh kiyimlarini saqlash va ularni namoyish etish bo‘yicha jahondagi eng yetakchi muzey Rossiya etnografiya muzeyi hisoblanadi. Shulardan 40 dan ortig‘ini do‘ppi, salla, telpak, marosim bosh kiyimlari, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm maktablari namunalari bo‘y to‘plamlari tashkil etadi.

Rossiya etnografiya muzeyining fondida Buxoro amiri tomonidan Rossiya hukmdorlariga sovg‘a sifatida jo‘natilgan oltin iplar bilan tikilgan to‘n, qimmatbaho toshlar bilan ishlov berilgan kamarlar, bosh kiyimlar saqlanadi.

Rossiya etnografiya muzeyi O‘zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlari etnografik kolleksiyalariga nihoyatda boy muzey hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda muzeyda ekspozitsiyani tashkil etish, eksponatlarni saqlash va namoyish etish bo‘yicha ilg‘or usullar va texnologiyalardan foydalaniladi. Axborot texnologiyalari va multimedia uskunalari asosiy muzey ko‘rgazmasini uyg‘un ravishda to‘ldiradi va muzey ashyolari va kolleksiyalari haqida batafsil ma‘lumot beradi. Ushbu texnologiyalar zamonaviy jahon standartlariga to‘liq mos keladi: Ko‘plab media ekranlar, video panellar, monitorlar, proyektorlar, audio qo‘llanmalar, QR kodlar.

Muzeydagi sensorli ekranlar va audio qo‘llanmalar orqali tashrif buyuruvchilar mustaqil ravishda muzeydagi liboslar va bosh kiyimlar ekspozitsiyasi bilan tanishishlari mumkin. Bundan tashqari, har bir vitrinada batafsil ma‘lumotga ega QR kodlari mavjud. Muzeyga tashrif buyuruvchilar ma‘lumotlarni skanerlashi va bosh kiyimlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishlari mumkin. Shuningdek, muzeyning internet sahifasi orqali ham virtual turlar tashkil etilgan. Sayt orqali virtual turga buyurtma berib, gid xizmatidan foydalanish mumkin. Virtual turlar ham guruhli yoki yakka tartibda tashkil etiladi. Virtual sayohat davomida ham tasvirning ustidagi belgilarni bosish orqali, eksponat haqida to‘liq ma‘lumot olish mumkin.

Muzey saytida bepul turlar ham tashkil etilgan bo‘lib, jami 64371 eksponat, 178 ta kolleksiya, 19-asrning 430 ta kolleksiyasi, 249 ta ekspeditsiya, 274 ta albomlar haqida to‘liq ma‘lumot olish imkoni mavjud. Shulardan jami 258 tasi bosh kiyimlar bo‘lib, ular orasida o‘zbek do‘ppilari ham mavjud. Har bir bosh kiyimning tavsifi, ilmiy pasportlari, tasvirlari bilan birgalikda taqdim etilgan. Ular orqali Rossiya, Yevropa va Osiyo xalqlarining liboslari, bosh kiyimlari to‘plamlari, matolari va urf-odat, an‘analari bilan yaqindan tanishish mumkin.

Jahonning yana bir yirik Davlat Ermitaj muzeyi kolleksiyasida Markaziy Osiyo — xususan O‘zbekiston hududiga oid tarixiy, etnografik va arxeologik materiallar jamlangan. Muzey

fondlarida O‘zbekiston — asosan Buxoro xonligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari davriga oid sovg‘alar, diplomatik ulushlar hamda etnografik liboslar mavjud.

Shuningdek, “Buxoro zodagonlarining liboslari” to‘plamida zardo‘zlik, ipak va kumush bezaklar bilan bezatilgan bosh kiyimlar mavjudligi qayd etilgan. 1934-yilda Toshkentdagi muzeylar fondi tarkibidan olingan, eng qadimgi va qimmatli 108 ta eksponat (liboslar, bosh kiyimlar, to‘nlar, do‘ppilar va boshqalar) aynan Ermitaj muzeyi fondida saqlanmoqda.

Davlat Ermitaj muzeyida milliy bosh kiyimlarni namoyish etishda tematik-ekspozitsion metod hamda fotolar yordamida namoyish etiladi. “Markaziy Osiyo to‘plamlari” nomli ekspozitsiyada jami 4 ta o‘zbek milliy do‘ppilari namoyish etiladi. Bosh kiyimlarni namoyish etishda audiogid xizmatidan unumli foydalanilgan bo‘lib, har bir bosh kiyim haqida rus va ingliz tillarida umumiy ma‘lumot olish mumkin. Bu esa tomoshabinlar uchun mustaqil ma‘lumot olish hamda ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Germaniyadagi Berlin etnografiya muzeyi, Londondagi Britaniya muzeylari fondida ham muzeyga sovg‘a qilingan o‘zbek milliy “qalampir nusxa” do‘ppisi saqlanadi. Ushbu bosh kiyimlarining soni har ikkala muzeyda ikki dona bo‘lib, alohida sharoitda maxsus qutilarda saqlanadi. Fond-saqlov xonalarida ularni saqlash harorati optimal 50 C ni tashkil etadi.

Odatda etnografik muzeylarda bosh kiyimlarni namoyish etishda alohida qoidalarga amal qilinadi. Ko‘pincha bosh kiyimlar xalqlarning ijtimoiy yashash darajasiga ko‘ra tasniflanadi. Ular ba‘zan biron bir shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. Bunday do‘ppilar uy-muzeylarida ko‘proq uchraydi. Tematik ekspozitsion komplekslarda do‘ppilar turlicha, masalan, alohida yakka holda, ba‘zan liboslar bilan qo‘shimcha tarzida ularning yuqori yoki tag qismiga qo‘yib namoyish etilishi mumkin. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi va O‘zbekiston davlat san‘at muzeyida aynan mana shu uyg‘unlikdan foydalangan holda namoyishga qo‘yilgan bosh kiyimlarni ko‘ramiz.

Bugungi kun talabiga binoan ularni noodatiy namoyish etishda esa bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Do‘ppilarning har biriga alohida etiketaj qo‘llash, alohida manikenlarda yoki tagliklarda namoyish etish ham ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga xalq hayotini aks ettiruvchi mulyajlar orqali ham do‘ppilarni namoyish etish mumkin. Aynan Rossiya etnografiya muzeyida tashkil etilgan “O‘zbekiston etnografiya bo‘limi” da milliy bosh kiyimlar va liboslar aynan xalq hayotini aks ettiruvchi mulyajlar orqali namoyish etiladi. Bu esa ekspozitsiyaning yanada yorqin va jonli bo‘lishini ta‘minlab bergan. Aynan shu uslubdan foydalanish orqali, bosh kiyimlarni tarixiy xronologik ketma-ketlik asosida, ma‘lum bir voqelik bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

So‘nggi yillarda, O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan va namoyishga qo‘yilgan do‘ppilar kolleksiyasida ham birmuncha yutuqlar ko‘zga tashlandi. Ayni vaqtda O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi va yana bir qancha muzeylarda QR kodli ma‘lumotlardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu QR kodlari orqali mobil qurilma kamerasidan foydalanib tashrif buyuruvchilar mustaqil ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar. Davlat san‘at muzeyida milliy bosh kiyimlar ekspozitsiya zaliga ham shunday QR kodlari o‘rnatilgan bo‘lib, unda do‘ppilar haqida umumiy ma‘lumotlar o‘zbek, rus, ingliz tillarida berib o‘tilgan.

O‘zbekiston amaliy san‘ati va xalq hunarmandchiligi davlat muzeyi ham bu borada faol izlanishda. Har yili muzeyda aynan biror mavzuga yoki ekspozitsiyaga bag‘ishlangan tadbirlar, master klass va ko‘rgazmalar tashkil etiladi. 2023-yil avgust oyida muzeyda milliy bosh kiyimlarga bag‘ishlangan “Do‘ppi party” tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbir davomida milliy bosh kiyimlarni tikish va tayyorlash bo‘yicha ijodiy mahorat darslari, do‘ppilar haqida hujjatli film, vokal, instrumental, xoreografik chiqishlardan iborat mash-up, DJ to‘plamlari tashkil etildi. Bu esa

ekspozitsiyani tomoshabinga chiroyli taqdim etishning bir usuligina bo‘lib qolmay, muzeyga tomoshabinlarni jalb qilishda ham kata ahamiyatga ega.

Yurtimiz muzeylarida saqlanayotgan milliy bosh kiyimlarni texnika qoidalari va ekspozitsiya talablariga asoslangan holatda namoyish etish, ekspozitsiyaning tashqi qiyofasiga ta’sir etibgina qolmay, asrlar davomida xizmat qilishga va yurtimizning go’zal tarixini avlodlarga yetkazishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Muzeylarda turli davrga oid, turli xalqlar va viloyatlar kiygan do‘ppilar keng ko‘lamda namoyish etiladi. Darhaqiqat, Respublikamiz va xorijiy muzeylar xazinalarida saqlanayotgan moddiy va ma’naviy madaniyatimizning bebaho yodgorliklari bizning kim bo‘lganligimizni namoyon etuvchi nodir guvohlardir.

O‘zbek milliy bosh kiyimlarining xorijiy muzeylarda namoyish etilishi — bu nafaqat tarixiy merosni taqdim etish, balki ilmiy hamkorlik, madaniy diplomatiya, xalqaro aloqalarni mustahkamlash va milliy identitetni dunyoga tanitishning samarali vositasidir. Xorijiy muzeylar kolleksiyalarida saqlanayotgan bosh kiyimlar o‘zbek xalqining san’at an’analari, hunarmandchilik maktablari va ma’naviy qadriyatlarini global ilmiy hamjamiyatga yetkazuvchi noyob manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Богословская И., Левтеева Л. Тюбетейки Узбекистана XIX-XX веков. —Т., 2006.— С.10.
2. Ibragimova A. O‘zbekiston davlat san’at muzeyi do‘ppilar kolleksiyasi. O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. T.2020.—B.9.
3. M. Rahmonova. Do‘ppi milliy g‘ururimiz. Uslubiy qo‘llanma.
4. Murodova D. O‘zbek do‘ppido‘zligida nafosat falsafasi. O‘zDSMI xabarlar— 2019/4(12). B.93.
5. Nurullayeva Z. O‘zbek do‘ppilari va ularni ekspozitsiyada namoyish etish masalalari. Bitiruv malakaviy ishi—T..2020-B.59.
6. Садикова, Ш. Х. Ўзбекистон дўппилари / Ш. Х. Садикова. // Молодой ученый.— 2020. — № 30
7. Collection-ethnomuseum-ru.